



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 8 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 8, НОМЕР 8

LOOK TO THE PAST
VOLUME 8, ISSUE 8



ТОШКЕНТ-2025

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдулаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Ganjina Azimova NOYOB KITOBLAR FONDI O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYIDA.....	5
2. Елена Гордеева СТРОИТЕЛЬНЫЕ ТРАДИЦИИ РАННИХ ЗЕМЛЕДЕЛЬЦЕВ ДРЕВНЕГО ШАША.....	11
3. Mohinur Isaqova YANGI O‘ZBEKISTONDA XALQCHIL VA INSONPARVAR DAVLAT QURISHNING IJTIMOIY-SIYOSIY AHAMIYATI.....	16
4. Pyos Oqbo‘tayev KOREYS XALQINING TO‘LJANJI MAROSIMI VA UNING TRANSFORMATSIYASI.....	22
5. Жамшид Пиримкулов ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ САНОАТ ШАҲАРЛАРИНИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ.....	29
6. Xumora Pozilova TIRNAB BEZAK BERILGAN SOPOL IDISHLARLARNING TARIXIY ILDIZLARI, XRONOLOGIYASI, TARQALISH GEOGRAFIYASI VA O‘RGANILISHI.....	39
7. Murod Raxmatov “YANGI TURKISTON” JURNALI – MA’RIFAT VA KURASH MINBARI.....	46
8. Boburjon Teshaboyev FUQARO MUHOFAZASI VA FAVQULODDA VAZIYATLAR SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	51
9. Baxtiyor Xalmuratov “YOMG‘IR” RAMZI BILAN BOG‘LIQ XALQ QARASHLARI.....	58
10. Хулкар Холикулова ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕКISTONДА “ЛИДЕР АЁЛ” ВА “ЗАМОНАВИЙ АЁЛ” ТУШУНЧАЛАРИ.....	66
11. Шахноза Холикулова ЎЗБЕКISTONДА 1930-1940 ЙИЛЛАРДА КИМЁВИЙ ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ САНОАТЛАШУВИ ТАРИХИ.....	71
12. Рашид Холмуродов ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА УНИВЕРСИТЕТИ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИ.....	77



Xumora Oqilbek qizi Pozilova,
O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi
Milliy arxeologiya markazi 1-kurs doktorant
email:pozilovaxumora@gmail.com

TIRNAB BEZAK BERILGAN SOPOL IDISHLARLARNING TARIXIY ILDIZLARI, XRONOLOGIYASI, TARQALISH GEOGRAFIYASI VA O'RGANILISHI

For citation: Khumora O. Pozilova. HISTORICAL ORIGINS, CHRONOLOGY, GEOGRAPHICAL DISTRIBUTION AND STUDY OF INCISED POTTERY. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 8.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17253145>

ANNOTATSIYA

Maqola tirnab bezak berilgan sopol idishlarning tarixiy ildizlari, ularning xronologik rivojlanish bosqichlari, tarqalish geografiyasi va ilmiy o'rganilish masalalariga bag'ishlangan. Arxeologik topilmalar va yozma manbalar asosida miloddan avvalgi II mingyillik oxiridan boshlab Markaziy Osiyo, jumladan, Farg'ona vodiysi, So'g'd, Yettisuv va Sharqiy Turkiston hududlarida tirlangan bezakli idishlar keng tarqalganligi ilmiy asosda ko'rsatib beriladi. Tirlangan naqshlarning texnik xususiyatlari, geometrik, o'simliksimon va zoomorf motivlari hamda ularning ramziy-ritual mazmuni alohida tahlil qilinadi. Tadqiqotda bu bezaklarning mahalliy an'analar va mintaqalararo madaniy aloqalar natijasida shakllanganligi qayd etiladi. Shuningdek, XX asr arxeologik ekspeditsiyalari natijalariga tayangan holda, tirnab bezakli sopol buyumlarning tipologiyasi va hududlar bo'yicha tarqalishi bosqichma-bosqich yoritiladi. Xulosa o'rnida, tirlangan bezakli keramika nafaqat qadimgi kulolchilik san'atining yuksak darajasini, balki diniy e'tiqodlar, ijtimoiy-madaniy munosabatlar va xalqaro aloqalarning muhim ko'rsatkichlaridan biri ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: tirlangan bezak, sopol idishlar, keramika, xronologiya, tarqalish geografiyasi, "Davan naqshlari", Farg'ona vodiysi, arxeologiya.

Хумора Позилова,
Докторант 1 курса,
Национального археологического центра
Академия наук Республики Узбекистан
email:pozilovaxumora@gmail.com

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИСТОКИ, ХРОНОЛОГИЯ, ГЕОГРАФИЯ РАСПРОСТРАНЕНИЯ И ИЗУЧЕНИЕ КЕРАМИКИ С ПРОЦАРАПАННЫМ ОРНАМЕНТОМ

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена историческим истокам керамических изделий с процарапанным орнаментом, их хронологическим этапам развития, географии распространения и вопросам изученности. На основе археологических находок и письменных источников показано, что с

конца II тысячелетия до н. э. на территории Средней Азии, включая Ферганскую долину, Согдиану, Семиречье и Восточный Туркестан, широкое распространение получила керамика с процарапанным орнаментом. Особое внимание уделено техническим особенностям процарапанных узоров, их геометрическим, растительным и зооморфным мотивам, а также символическому и ритуальному значению. В исследовании отмечается, что данные орнаменты формировались как результат местных традиций и межрегиональных культурных контактов. На основе материалов археологических экспедиций XX века прослежена типология и этапы распространения керамики с процарапанным орнаментом. В заключение подчеркивается, что керамика с процарапанным орнаментом является не только показателем высокого уровня гончарного ремесла древности, но и важным свидетельством религиозных верований, социально-культурных отношений и международных связей.

Ключевые слова: процарапанный орнамент, керамика, хронология, география распространения, «Даванские узоры», Ферганская долина, археология.

Khumora O. Pozilova,

1st-year Doctoral Student, National Archaeological Center
Of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.
e.mail:pozilovaxumora@gmail.com

HISTORICAL ORIGINS, CHRONOLOGY, GEOGRAPHICAL DISTRIBUTION AND STUDY OF INCISED POTTERY

ABSTRACT

The article is devoted to the historical origins of pottery with incised ornamentation, its chronological stages of development, geographical distribution, and the history of its study. Based on archaeological evidence and written sources, it is demonstrated that since the end of the 2 nd millennium BC, pottery with incised decoration became widespread in Central Asia, particularly in the Ferghana Valley, Sogdiana, Semirechye, and Eastern Turkestan. Special attention is paid to the technical features of the incised patterns, their geometric, vegetal, and zoomorphic motifs, as well as their symbolic and ritual meanings. The study emphasizes that these ornaments emerged as a result of local traditions and interregional cultural interactions. Drawing upon the results of 20th-century archaeological expeditions, the typology and regional dissemination of incised pottery are analyzed step by step. In conclusion, incised pottery is highlighted not only as an indicator of the high level of ancient pottery craftsmanship but also as valuable evidence of religious beliefs, socio-cultural relations, and international connections.

Index Terms: incised ornament, pottery, ceramics, chronology, geographical distribution, “Davan patterns”, Ferghana Valley, archaeology.

1. Dolzarbligi:

Markaziy Osiyo qadimiy madaniyatlari orasida Farg‘ona vodiysi o‘ziga xos o‘rin tutadi. Bu hudud tabiiy-geografik sharoiti, unumdor yerlari va sug‘orishga yaroqli daryolari tufayli qadimdan dehqonchilik va chorvachilik rivojlangan maskan bo‘lib kelgan. Qulay iqlim sharoiti, boy suv resurslari va tabiiy yo‘llarning kesishgan nuqtasida joylashuvi Farg‘onani qadimdan yirik iqtisodiy va madaniy markaz sifatida shakllanishiga sabab bo‘lgan. Aynan shu omillar uni Sharq va G‘arbni bog‘lovchi muhim hududga aylantirib, Buyuk Ipak yo‘li shakllanishida ham alohida rol o‘ynagan.

Qadimgi Farg‘ona haqida yozma manbalar asosan Xitoy tarixiy yilnomalarida saqlanib qolgan. Mazkur ma‘lumotlar ko‘p hollarda parchali bo‘lib, umumiy tavsiflar bilan chegaralanadi. Shunga qaramay, ular Farg‘ona davlatchiligi, ijtimoiy tuzumi va madaniy hayoti haqida muhim xulosalar chiqarishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Xitoy yilnomalarida tilga olingan Davan (Da-Yuan) podsholigi Farg‘ona vodiysi bilan aynanlashtiriladi. Bu fikrni ilk bor fransuz sinologi J. Degine ilgari surgan va keyinchalik ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan qabul qilingan. [11]

Xitoy manbalarida Davan mamlakati rivojlangan dehqonchilik, chorvachilik, ko‘plab shaharlar va ayniqsa mashhur otlari bilan ajralib turgani qayd etiladi. Davan otlari Xitoy

hukmdorlari uchun katta qadr-qimmatga ega bo'lgan va ular hatto "samoviy otlar" deb nomlangan. Bu fakt Farg'onaning qadimdan xalqaro iqtisodiy va madaniy aloqalarda muhim o'rin tutganini ko'rsatadi.

Miloddan avvalgi II asr oxirlarida yuechjilar Davan hududidan o'tib, keyinchalik Janubiy Markaziy Osiyoda Kushon imperiyasini barpo etadilar. Ammo arxeologik dalillar Farg'onaning Kushon davlati tarkibiga kirmaganini ko'rsatadi. Bu esa vodiyning mustaqilligi uzoq davom etganidan dalolat beradi.

Shunday qilib, Farg'ona vodiysi qadimiy davrlardan boshlab o'ziga xos madaniy rivojlanish yo'liga ega bo'lib, Markaziy Osiyoning siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarida muhim o'rin tutgan. Mazkur maqolada qadimgi Farg'ona vodiysi moddiy madaniyati, ayniqsa sopol buyumlar, ularning bezaklari va keramika majmualari ilmiy tahlil qilinadi.

Arxeologik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Farg'ona vodiysi miloddan avvalgi II mingyillikdan boshlab murakkab va uzluksiz madaniy rivojlanish jarayonini boshdan kechirgan. Bu davrda dehqonchilikka asoslangan o'troq hayot tarzi bilan bir qatorda, chorvachilikka asoslangan ko'chmanchi turmush tarzining o'zaro ta'siri natijasida bir-biridan farqli, ammo o'zaro bog'liq madaniyatlar shakllangan. Tadqiqotchilarning fikricha, aynan ushbu sintez keyinchalik Farg'ona madaniyatining o'ziga xosligini belgilagan [6].

Chust madaniyati mil. avv. II mingyillik oxiri – VIII–VII asrlarda shakllangan bo'lib, asosan Farg'onaning sharqiy va shimoliy qismlarida tarqalgan. Bu madaniyatga mansub 80 dan ortiq manzilgoh aniqlangan. Chust madaniyatining asosiy belgisi — o'troq dehqonchilik xo'jaligi, xom g'ishtdan qurilgan uy-joylar va sopol idishlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Sopol buyumlar orasida qo'lda yasalgan, qora yoki qizg'ish rangda pishirilgan idishlar ko'pchilikni tashkil etadi. Bezak sifatida geometrik naqshlar — to'liqinli chiziqlar, spiral shakllar, nuqtali bezaklar qo'llangan. Bu madaniyat vakillari nafaqat dehqonchilik, balki hunarmandchilik bilan ham shug'ullangan. Metall buyumlar, toshdan ishlangan mehnat qurollari va taqinchoqlar topilgan. Chust sopollari o'zining turfa shakllari bilan keyingi davr kulolchilik san'atiga katta ta'sir ko'rsatgan [9].

Qayraqqum madaniyati asosan Farg'onaning g'arbiy va janubiy hududlarida tarqalgan bo'lib, chorvachilik asosiy xo'jalik sohasi bo'lgan. Bu madaniyat ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turmush tarziga asoslanganligi bilan Chust madaniyatidan farq qiladi.

Qayraqqum madaniyatiga mansub yodgorliklarda sopol buyumlar Chust sopollariga qaraganda soddaroq shakllarda bo'lib, ko'proq amaliy vazifalarni bajargan. Idishlar qo'lda yasalgan, pishirish darajasi past, bezaklar kam uchraydi. Topilmalarda chorvachilikka oid qurollar, suyakdan ishlangan buyumlar va oddiy metall asboblari ko'p uchraydi.

Shu bilan birga, Qayraqqum madaniyati Chust madaniyati bilan doimiy aloqada bo'lgan, ular o'rtasida xo'jalik va madaniy almashinuv yuz bergan. Bu jarayon keyinchalik yagona Farg'ona madaniy muhitining shakllanishiga olib kelgan [4].

Miloddan avvalgi VII–III asrlarda yangi chorvador qabilalarning kirib kelishi natijasida Eylatan madaniyati shakllangan. Bu davr Farg'ona tarixida muhim o'tish davri bo'lib, o'troq va ko'chmanchi an'analar yanada yaqinlashadi.

Eylatan madaniyatiga oid yodgorliklardan topilgan sopollar orasida geometrik naqshli idishlar, qizil angob bilan qoplangan kosalar, katta hajmli xo'jalik xumlari uchraydi. Bezaklar orasida parallel chiziqlar, qirqim naqshlar va chizilgan uchburchaklar ko'p tarqalgan.

Tadqiqotchilar Eylatan madaniyatini Farg'ona vodiysida dastlabki urbanizatsiya jarayonlari boshlangan davr sifatida baholaydilar. Shahar tipidagi yirik manzilgohlar, mudofaa devorlari, ijtimoiy tabaqalanishning kuchayishi bu davrga xos belgilar hisoblanadi [7].

Miloddan avvalgi II asrdan boshlab VI–VII asrlargacha davom etgan davrda "Kugay o'troq-ko'chmanchi madaniyati" shakllangan. Bu madaniyat Chust va Qayraqqum an'analari sintezining davomidir.

Kugay madaniyatiga oid sopollar orasida charxda ishlangan idishlar soni keskin ortadi. Qizil angob bilan qoplangan kosalar, tirnalgan bezakli buyumlar keng tarqalgan. Bu davr sopollari texnik jihatdan yanada mukammallashgan va o'zining dekorativligi bilan ajralib turgan [6]

Demak, mil. avv. II mingyillikdan mil. VII asrigacha bo'lgan davrda Farg'ona vodiysi madaniyatida izchil taraqqiyot kuzatilgan. Chustning o'troq dehqonchilik madaniyati va Qayraqqumning chorvachilik an'analari uyg'unlashib, Eylatan davrida shahar madaniyatiga zamin yaratgan, Kugay davrida esa yuqori cho'qqiga ko'tarilgan. Bu jarayonlar keyinchalik Farg'onaning Buyuk Ipak yo'li doirasida yirik siyosiy va madaniy markazga aylanishiga xizmat qilgan.

2. Metodlar va o'rganilish darajasi:

Farg'ona vodiysi arxeologiyasining o'rganilish tarixi Markaziy Osiyo arxeologiyasining umumiy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu hudud qadimiy yodgorliklarga nihoyatda boy bo'lishiga qaramay, ilmiy izlanishlar uzoq vaqt davomida sust olib borilgan. Faqat XIX asr oxirlaridan boshlab Farg'onada muntazam ilmiy kuzatishlar paydo bo'ldi. Keyinchalik irrigatsion qurilishlar, muzeylarning tashkil etilishi va maxsus ekspeditsiyalar faoliyati tufayli tadqiqotlar yangi bosqichga ko'tarildi. Mustaqillik yillarida esa arxeologik izlanishlar yanada kengayib, xalqaro miqyosga chiqdi.

F. Maqsudov Farg'ona vodiysi arxeologiyasini o'rganishni to'rt bosqichga ajratadi. Quyida har bir bosqichni batafsil ko'rib chiqamiz.

1. XIX asr oxiri – dastlabki tavsifiy bosqich

Farg'ona vodiysi arxeologiyasining ilk ilmiy qaydlari XIX asr oxiriga to'g'ri keladi. 1895-yilda tashkil etilgan Turkiston arxeologiya ixlosmandlari to'garagi faoliyati davomida Farg'ona hududidagi yodgorliklar haqida dastlabki tavsifiy ma'lumotlar yig'ildi. Ushbu to'garak protokollarida turli joylarda uchraydigan qadimiy tepaliklar, shahar xarobalari va qabristonlar haqida ma'lumotlar qayd etilgan.

Bu davr izlanishlarining asosiy xususiyati shundaki, ular ko'proq kuzatuv va tavsiflash bilan chegaralangan, ammo ilmiy tahlil va stratigrafik qazishlar deyarli olib borilmagan. Shunga qaramay, bu bosqich Farg'ona arxeologiyasini ilmiy asosda o'rganishga zamin yaratdi.

2. 1930-yillar – irrigatsion qurilishlar davri

XX asrning 30-yillarida Farg'ona vodiysida keng ko'lamli irrigatsion-meliorativ qurilish ishlari boshlangan edi. Katta Farg'ona kanali, shuningdek Shimoliy va Janubiy Farg'ona kanallari qurilishi jarayonida qadimiy yodgorliklar ochilib qolmasligi uchun arxeologik nazorat tashkil etildi.

Mazkur nazorat ishlari jarayonida ko'plab arxeologik topilmalar qayd etilgan, ayrim joylarda tezkor qazishmalar amalga oshirilgan. Natijada Farg'onaning qadimiy shahar madaniyati, sopol buyumlari va hunarmandchilik an'analari haqida dastlabki daliliy ma'lumotlar to'plandi.

Bu bosqich arxeologiya va xo'jalik faoliyatining bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lishini ko'rsatdi. Ayni paytda ilmiy maqsaddan tashqari, madaniy merosni asrab qolish masalasi ham dolzarb bo'lgan.

3. 1962-yildan – Farg'ona arxeologik ekspeditsiyasi

1962-yildan boshlab Farg'onada Davlat Ermitaji va Farg'ona viloyat o'lkashunoslik muzeyi hamkorligida yirik Farg'ona arxeologik ekspeditsiyasi tashkil etildi. Bu ekspeditsiya Farg'onaning deyarli barcha hududlarini qamrab olib, muntazam qazish ishlari va ilmiy kuzatuvlar olib bordi.

Natijada vodiyning arxeologik xaritasi tuzildi, yuzlab yodgorliklar aniqlanib, ularning davrlashtirilishi va tipologiyasi ishlab chiqildi.

Xususan, Chust, Shurabashat, Qulunchak, Xo'jambog', Marhamat kabi yodgorliklarda olib borilgan qazishmalar sopol buyumlarning katta majmualarini yuzaga chiqardi.

Bu bosqichning asosiy yutug'i shundaki, Farg'ona vodiysi qadimiy madaniyati endilikda faqat yozma manbalar asosida emas, balki boy arxeologik materiallar orqali ham o'rganila boshladi.

4. 1991-yildan – mustaqillik davri tadqiqotlari

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Farg'ona vodiysi arxeologiyasida yangi davr boshlandi [6].

Farg'ona vodiysining ilk o'rta asrlar tarixi va madaniyatini o'rganishda N. G.

Gorbunovanning alohida hissasini ta'kidlash kerak. Olimaning ta'kidicha, milodiy V- VI asrlarda charxda yasalgan idishlar soni kamayadi, angob sifati pasayadi, angobdan idish sirtiga bezak solish paydo bo'ladi. Sho'rabashat madaniyati davri bilan bir vaqtda va keyinchalik sirti qizil angob bilan qoplangan, tirlangan naqsh berilgan sopollar keng tarqalganligi, bunda asosan tor va

keng bo‘yinli tuvaklarga tirnamali naqshlar berilganligi va ulardagi bezaklarning asosiy elementlari uchburchaklar, to‘r, gajakdor naqshlardan tashkil topganligi haqida ma‘lumot berib o‘tgan. Bezak turlari ham o‘zgarib, juda kam xollarda qush, o‘simlik yoki boshqa jonivor tasvirlari uchrab turishini aytib o‘tadi [1].

3. Tadqiqot natijalari:

Arxeolog Yu. A. Zadneprovskiy qadimgi Farg‘ona sopol buyumlarini tizimlashtirish uchun maxsus klassifikatsiya ishlab chiqqan [10]. Uning tasnifiga ko‘ra, keramika quyidagi asosiy guruhlarga bo‘linadi:

1. Qo‘lda yasalgan, bezaksiz idishlar. Odatda dag‘al pishirilgan, soddaroq shaklli, maishiy ehtiyoj uchun ishlatilgan buyumlar.

2. Qo‘lda ishlangan bo‘yalgan va naqshli idishlar. Ularning yuzasida geometrik yoki o‘simliksimon naqshlar uchraydi.

3. Kulrang loyli oshxona idishlari. Issiq ovqat pishirish va saqlash uchun ishlatilgan, pishirish texnologiyasi mustahkam bo‘lgan.

4. Qizil angobli va tirlangan bezakli sopollar. Dekorativ jihatdan boy bo‘lib, “Davan bezaklari” bilan mashhur.

5. Charxda ishlangan idishlar. Texnik jihatdan yuqori darajada bo‘lib, ularning tarqalishi hunarmandchilikning yuksalishini ko‘rsatadi.

6. Xumlar. Katta hajmli xo‘jalik idishlari bo‘lib, don va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash uchun ishlatilgan [11].

Bu tasnif bugungi kunda ham Farg‘ona sopollarini ilmiy tadqiq etishda asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Farg‘ona vodiysi kulolchilik mahsulotlari orasida tirlangan bezakli idishlar alohida o‘rin egallaydi. Bu naqshlar qadimgi davr kulollik san‘atining rivojlanganligini ko‘rsatibgina qolmay, balki diniy tasavvurlar, estetik qarashlar va ijtimoiy hayot haqida ham qimmatli ma‘lumot beradi. Tadqiqotchilar tomonidan bunday sopollar ko‘pincha “Davan bezaklari” deb yuritiladi [3].

Tirlangan naqshlar idish quriganidan keyin, ammo hali pishirilmasdan oldin o‘tkir tig‘li asboblar yordamida chizilgan. Natijada idish yuzasida 0,5–1,1 mm chuqurlikdagi chiziqlar hosil bo‘lgan. Bu usul sopolning tabiiy rangidan farq qiluvchi fon yaratib, naqshlarning keskin ajralib turishini ta‘minlagan.

Ba‘zan tirlangan joylar angob bilan to‘ldirilgan yoki ustidan qayta qizil rang surtilgan. Bu bezak texnikasining murakkablashuvi qadimgi kulollarning yuqori mahoratini ko‘rsatadi. Sopol idish sirtiga tirnab naqsh berish usuli Farg‘ona vodiysi kulolchiligining qadimiy an‘analaridan biri hisoblanadi. Mazkur naqsh berish usuli Farg‘onada eng keng tarqalgan va qadimiy texnik variantlaridan biri bo‘lib, milodiy I asrdan to milodiy VI asrgacha mavjud bo‘lgan. Undagi bezak motivlari eng oddiy to‘g‘ri chiziqdan murakkab naqshgacha bo‘lgan ko‘plab chizmalar bilan ifodalangan. Bunda idish yuzasiga bir qirrali yoki ko‘p burchakli uskuna bilan tirnab naqsh tushirilgan. Tirlangan bezakning eng oddiy ko‘rinishi bu-idish bo‘yni va yuzasi bo‘ylab solingan bezak hisoblanadi [8].

Farg‘ona sopollaridagi tirlangan bezaklar xilma-xil shakllarda namoyon bo‘lgan. Eng oddiy lari parallel chiziqlar, to‘lqinli tasvirlar va romb shakllaridan iborat bo‘lsa, murakkab variantlarda quyidagi elementlar uchraydi:

- Geometrik shakllar: uchburchaklar, zigzag chiziqlar, spiral tasvirlar, yarim doira va girih naqshlar.

- O‘simliksimon bezaklar: shoxchalar, barglar, daraxt tasvirlari.

- Zoomorf motivlar: qushlar, otlar va ayrim hollarda boshqa hayvon tasvirlari.

Bu motivlarning keng tarqalishi ularning diniy-ramziy mazmun kasb etganidan dalolat beradi. Masalan, daraxt va qush tasvirlari qadimiy insonlar uchun hayotiylik va unumdorlik timsoli bo‘lgan.

Tirlangan bezaklarning diniy va ramziy mazmunini ko‘rsatadigan yorqin misollardan biri Koshtepa qabristonidan topilgan qizil angobli qozondir. Idish yuzasida daraxtlar orasida uch juft

qush tasvirlangan bo‘lib, tadqiqotchilar ularni qirg‘ovulga o‘xshatgan Bu tasvir qadimiy diniy e‘tiqod va marosimlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin [2].

Sho‘rabashat madaniyati davri bilan bir vaqtda va keyinchalik sirti qizil angob bilan qoplangan, tirnalgan naqsh berilgan sopollar keng tarqalganligi, bunda asosan tor va keng bo‘yinli tuvaklarga tirnamali naqshlar berilganligi va ulardagi bezaklarning asosiy elementlari uchburchaklar, to‘r, gajakdor naqshlardan tashkil topganligi haqida ma‘lumot berib o‘tgan. Bezak turlari ham o‘zgarib, juda kam xollarda qush, o‘simlik yoki boshqa jonivor tasvirlari uchrab turishini aytib o‘tadi. (Gorbunova 1962. S. 113)

Tirnalgan bezakli sopollar faqat Farg‘onaga xos emas. Ularning o‘xshash variantlari Markaziy Osiyoning boshqa hududlarida ham uchraydi. Masalan:

Xulbuk (Tojikiston) yodgorligidan, Poykend va Varaxsha (Buxoro vohasi) topilgan sopollarda geometrik tirnalgan naqshlar kuzatiladi [8].

Xorazm va Hindiston hududidagi yodgorliklaridan topilgan tirnama bezaklar bilan ayrim o‘xshashliklar mavjud [5].

Bu o‘xshashliklar Farg‘ona vodiysi kulolchilik san‘ati keng madaniy aloqalarga ega bo‘lganini ko‘rsatadi

Sayko Xulbukdan topilgan sopollarni mikroskop yordamida o‘rganib, tirnalgan bezaklarning yog‘och yoki metall asbob yordamida ishlanganini aniqlagan. Bu esa qadimiy kulollar maxsus vositalardan foydalanganini va bezak berishda aniq texnologiyaga ega bo‘lganini isbotlaydi.

Shuningdek, sopollarni pishirish jarayonida o‘ziga xos rang o‘zgarishlari kuzatilgan. Qizil angob ustiga tirnalgan chiziqlar qora yoki jigarrang fon hosil qilib, naqshlarni yanada yaqqol ko‘rsatgan[8].

Xususan bunday idishlar oziq-ovqat saqlash uchun ishlatilgan chunki, tirnalgan bezakli sopol idishlarning asosiy qismi qozonlarda, ba'zilarida esa bezak tumor sifatida qo'llanilga. Bu idishlarga buyurtma berish mumkin va shuning uchun qimmatroq turadi [5].

4. Xulosalar:

Shunday qilib, tirnalgan bezakli sopollar qadimgi Farg‘ona kulolchilik san‘atining eng yorqin namunasi. Ularning texnik jihatdan mukammalligi, ornamentlarning xilma-xilligi va ramziy mazmuni bu jarayonning faqat mahalliy an‘ana emas, balki mintaqaviy madaniy aloqalar natijasi ekanini ko‘rsatadi. “Davan bezaklari” Farg‘ona madaniyatining noyob belgisi sifatida qadrlanib, Markaziy Osiyo arxeologiyasida muhim o‘rin egallaydi.

Keramika majmualari, xususan, qizil angobli va tirnalgan bezakli sopollar, bu hudud moddiy madaniyatining eng muhim ko‘rsatkichidir. “Davan bezaklari” deb ataluvchi naqshlar geometrik, o‘simliksimon va zoomorf elementlari bilan nafaqat estetik go‘zallikni, balki diniy-ramziy mazmunni ham aks ettiradi. Koshtepa qabristonidagi qushli idishlar yoki Marhamat majmuasidagi murakkab naqshlar qadimiy Farg‘ona xalqining dunyoqarashi va e‘tiqodlarini o‘zida mujassam etgan.

Shunday qilib, qadimgi Farg‘ona vodiysi moddiy madaniyati — sopol buyumlar, tirnalgan bezaklar va keramika majmualari — nafaqat mintaqaviy, balki butun Markaziy Osiyo tarixini yoritishda beqiyos manba bo‘lib xizmat qiladi. Farg‘ona madaniyatining o‘ziga xosligi va uning keng madaniy ta‘sir doirasi bugungi kunda ham ilmiy izlanishlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtiboslar

1. Горбунова Н.Г. Керамика поселений Ферганы первых веков нашей эры // Труды Государственного Эрмитажа. Т. XX. – Ленинград, 1979. – С. 114–146. (Gorbunova, N. G. Ceramics of the settlements of Ferghana in the first centuries of our era // Proceedings of the State Hermitage Museum, Vol. XX. Leningrad, 1979, pp. 114–146.)

2. Жуков В.Д. Отчет о работе второго отряда археологической экспедиции на строительстве БФК // Труды института истории и археологии АН УзССР. Т.4. – Ташкент, 1951. – С. 41–84. (Zhukov, V. D. Report on the work of the second detachment of the

archaeological expedition at the construction of BFK // Proceedings of the Institute of History and Archaeology of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR, Vol. 4. Tashkent, 1951, pp. 41–84.)

3. Литвинский Б.А. Керамика из могильников Западной Ферганы. – М., Изд-во “Наука”, 1973, 202 с.; (Litvinskiy, B. A. Ceramics from the burial grounds of Western Fergana. Moscow, 1973, 160 p.)

4. Литвинский Б.А. Работы отряда по изучению памятников бронзового века в Кайрак-Кумах в 1955 году // Труды АН ТаджССР. №63. – 1956. – С. 27–34. (Litvinskiy, B. A. Works of the detachment for the study of Bronze Age sites in Kayrak-Kumakh in 1955 // Proceedings of the Academy of Sciences of the Tajik SSR, No. 63. 1956, pp. 27–34.)

5. Максудов Ф.А. Некоторые вопросы семантики процарапанного орнамента на керамике Маргилана (по материалам Кызлартепа) // ИМКУ. Вып.28. – Самарканд, 1997. – С. 58. (Maksudov, F. A. Some issues of the semantics of the scratched ornament on the ceramics of Margilan (based on the materials of Kyzlar-tepa) // ИМКУ, Issue 28. Samarkand, 1997, p. 58.)

6. Максудов Ф.А. Становление и этапы развития земледельческой культуры в Южной Фергане (II пол. I тыс. до н.э. – I пол. I тыс. н.э. по материалам Маргилансайского оазиса): автореф. дисс. канд. ист. наук. – Самарканд, 2002. – 179 с. (Maksudov, F. A. Formation and stages of development of agricultural culture in Southern Ferghana (the second half of the 1st millennium BC – the first half of the 1st millennium AD based on the materials of the Margilansay oasis): Author’s ABSTRACT of the candidate dissertation. Samarkand, 2002, 179 p.)

7. Оболдуева Т.Г. О датировке стен Эйлатана // Советская археология. №14. – 1981. (Obolduyeva, T. G. On the dating of the walls of Eylatan // Sovetskaya Arkheologiya, No. 14. 1981.)

8. Сайко Э.В. История технологии керамического ремесла Средней Азии VIII–XII вв. – Душанбе, 1966. – 121 с. (Sayko, E. V. The history of the technology of ceramic crafts in Central Asia in the 8th–12th centuries. Dushanbe, 1966, 121 p.)

9. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы / Отв. ред. В.М. Массон. – М.–Л.: Изд-во АН СССР, 1962. – 327 с. (Zadneprovskiy, Yu. A. The Ancient Agricultural Culture of Ferghana / Ed. by V. M. Masson. Moscow–Leningrad: Academy of Sciences of the USSR, 1962, 327 p.)

10. Заднепровский Ю.А. Основные этапы истории Карадарьинского оазиса // КСИА. №98. – 1964. – С. 48. (Zadneprovskiy, Yu. A. Main stages in the history of the Karadarya oasis // KSIA, No. 98. 1964, p. 48.)

11. Заднепровский Ю.А. Фергана // Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. Археология СССР. – М.: Наука, 1985. – С. 304–315. (Zadneprovskiy, Yu. A. Ferghana // The most ancient states of the Caucasus and Central Asia. Archaeology of the USSR. Moscow: Nauka, 1985, pp. 304–315.)



Tadqiqot.uz

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000